



QO'QON XONLIKNING MA'MURIY BO'LINISHI VA BOSHQARUVI XUSUSIDA

Rajabov Oybek Iskandarovich

BuxDU Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasida katta o'qituvchisi

Hayitova Gulhayo G'olib qizi

talaba

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18870516>

ARTICLE INFO

Received: 13th February 2026

Accepted: 15th February 2026

Published: 28th February 2026

KEYWORDS

Qo'qon xonligi, hududiy bo'linish, davlat boshqaruvidagi mansablar, davlatchilik, bekliklar, voliy, qozi

ABSTRACT

Mazkur maqolada XVIII asrning boshlarida O'rta Osiyoda hukumronlik qilgan sulola Qo'qon xonligining tashkil topishi, ma'muriy tuzilishi va davlat boshqaruv tizimi tahlil qilingan. Shuninhdek, davlat boshqaruv tizimidagi vazifalar manbalar asosida yoritib berilgan.

O'zbek davlatchiligi tarixining bir bo'lagi bo'lgan Qo'qon xonligi va uning ma'muriy boshqaruv tizimini tarixiy qo'lyozma va manbalar asosida o'rganish, tahlil qilish tarix fani uchun dolzarb ahamiyatga egadir. Qo'qon xonligi tarixi masalalari bo'yicha turli davrlarda tadqiqot olib borgan olimlar o'z ilmiy tadqiqot ishlarida mazkur davlatning territoriyasi va uning ma'muriy - hududiy bo'linishi xususida ko'plab ma'lumotlar berganlar.

Tarixan qariyb ikki asr hukm surgan Qo'qon xonligi murakkab va ziddiyatli siyosiy jarayonlarni boshdan kechirdi. Xonlikning dastlab tashkil topgan davridagi hududi hokimiyatni bohqargan turli salohiyatli uzoqni ko'zlagan hukmdorlarning harakatlari natijasida kengayib bordi. Farg'ona vodiysida tashkil topgan davlat hududi va uning birinchi hukmdori Shohruhbiy (1709-1721) tomonidan Namangan, Marg'ilon hamda Andijon to'liq qo'lga kiritilgan edi. Abdurahimbiy taxtga o'tirgandan so'ng (1721-1733) Xo'jand viloyati xonlik tarkibiga qo'shib olinadi. 1753 yil taxtga o'tirgan Erdonabiy davlatning sharqiy qismida O'sh va O'zganni o'z davlati tarkibiga kiritdi. Norbo'tabiy hukmronligi davriga kelib esa Farg'ona vodiysining deyarli barcha qismi Qo'qon xonligi tarkibiga kirgan.

XVIII asr oxirlarida xonlikning hududi faqat Farg'ona vodiysidan iborat bo'lib, bu davrda Norbo'tabiy vodiydagi barcha beklik va viloyatlarni o'z itoatiga kirgizib, ularni Qo'qonga bo'ysundirdi. Olimxon davrida xonlik hududlari Toshkent va uning atrofidagi yerlar hisobidan ancha kengaydi. Tarixiy manbalarda Toshkent mulki - viloyat, shahar, Toshkent va Dashti Qipchoq viloyati nomlari bilan tilga olinadi. Umarxon davrida Xo'jand, O'ratepa va Jizzax atrofidagi yerlariga ham ketma - ket yurishlar qilinib, 1817 yil O'ratepa bosib olinadi.

Muhammad Alixon davrida xonlikning hududlari kengaydi, xonlik hududi shimolda Rossiyaga qarashli Tashqi Sibir okrugi bilan, g'arbda Buxoro va Xiva xonligi bilan, janubda Qorategin, Darboz va undan uzoqroqdagi yerlar - Sho'g'non, Ro'shon va Vaxon Ko'lob bilan, sharqda Qashg'ar bilan chegaralangan. Xonlik yerlariga Sirdaryo bilan Qorategin o'rtasida joylashgan Farg'ona hududlari, Sirdaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan Namangan, Xo'jand, Andijon, Axbi, Farg'ona va boshqa shaharlar, Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi o'rtasida joylashgan Qurama viloyati, Turkiston, Sirdaryoning quyi oqimidagi to Balxash ko'ligacha bo'lgan qirg'izlar yashaydigan yerlar, ko'chmanchi qirg'izlar yashaydigan Billu tog'ining sharqiy etaklari, 1830 yildan g'arbiy etaklari kirgan.

XIX asr manbalarida Qo'qon xonligi beklilik, ba'zan viloyat va sarkorlik sifatida tilga olingan ma'muriy – hududiy qismlarga bo'lingan hamda ularni xon tomonidan tayinlanadigan beklar, hokimlar va sarkorlar boshqargan. Ayrim manbalar (A.Kun) Qo'qon xonligidagi 15 ta beklilikning nomini keltiradi. Bular:

1.Qo'qon va uning atrofi; 2.Marg'ilon; 3.Shahrixon; 4.Andijon; 5.Namangan; 6.So'x; 7.Mahram; 8.Buloqboshi; 9.Aravon; 10.Baliqchi; 11.Chortoq; 12.Navkat; 13.Koson; 14.Chust; 15.Bobo darhon. "Туркестанские ведомости" (1876, №13) to'plamida esa Asaka, Marg'ilon, Baliqchi, O'sh, So'x, Koson va O'zgan sarkorlik sifatida ham tilga olinadi.

Hokimlar va hududiy bo'linmalar boshliqlari xon oilasi a'zolari, unga yaqin guruhlar, yuqori tabaqa vakillari hamda yetakchi qabila sardorlari orasidan tayinlangan. Misol uchun, Xudoyorxon davrida yettita beklilik xonning o'g'illari va yaqin qarindoshlari tomonidan boshqarilgan. O'z navbatida hokimlar viloyat hududlarini o'zlarining farzandlari va qarindoshlariga bo'lib berganlar. Qo'qon xonligining ma'muriy – hududiy boshqaruv tizimida bek (hokim, voliy) va uning o'rdasi alohida o'rin egallagan. Xon tomonidan tayinlangan hokim va qozi ko'plab vakolatlarga ega bo'lgan.

Bek o'rdasida ham xonning saroyidagidek yuzlab amal va unvonlar joriy etilgan bo'lib, ular mahalliy aholidan yig'iladigan soliq va to'lovlar hisobidan kun kechirishgan. Beklar xonning itoatkor vasallari bo'lib, mamlakatni idora etishda uni qo'llab – quvvatlashlari zarur bo'lganda unga yordam berishlari, uning hurmat- izzatini joyiga qo'yishlari, kerak vaqtda o'z qo'shinlari bilan harbiy yurishlarda ishtirok etishlari va sovg'a – salomlar yuborib turishlari zarur bo'lgan.

XIX asr boshlariga qadar xonlik hududi tarkibiga Marg'ilon, Andijon, Namangan, Xo'jand kabi yirik viloyatlar bilan bir qatorda Chust, Isfara, Konibodom singari hududiy jihatdan kichik viloyatlar ham bo'lgan va ularni ham viloyatlar kabi hokimlar boshqargan.

XIX asrning ikkinchi yarmida chop etilgan asarlarda ham xonlikning ma'muriy bo'linishi va uni tashkil etgan ma'muriy birlik turli viloyatlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bu asarlarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, xonlikning yirik viloyati Farg'ona bo'lib, u hududiy jihatdan Sirdaryoning chap qirg'og'i bilan Qorategin o'rtasida joylashgan yerlarni qamrab olgan edi. Sirdaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan Namangan va boshqa shaharlar hududini qamrab olgan yerlar xonlikning yana bir yirik viloyatini tashkil qilgan. Shuningdek, ba'zi ma'lumotlar bu davrda xonlik tarkibida Xo'jand va O'ratepa alohida-alohida viloyat bo'lganligini tasdiqlaydi.

Bu davrda xonlikning yirik ma'muriy birligi Toshkent viloyati bo'lib, bu viloyat ham rus manbarida ham keltirilgan. Bedbaq dala cho'lida joylashgan Turkiston xonlikning shimoliy viloyati hisoblangan. Qo'qon xonliging eng katta hududini Toshkent viloyati qamrab olgan bo'lib, mazkur viloyat tarkibiga bir nechta yirik shaharlar, qal'alar, ma'muriy birliklar birlashtirilgan. Toshkent viloyatiga tegishli bo'lgan ma'muriy birliklarga, asosan, xonlik shimoliy hududidagi qal'alar Avliyo Ota, Soliqo'rg'on, Marki, Itkechuv, Oqsuv, Pishpak va To'qmoq hamda Issiqko'lning atrofidagi hududlarni o'z ichiga olgan. Shuningdek, Qo'qon xonlarining ma'muriy hududiy bo'linishni shunday tarzda tashkil etishlari mamlakatda boshqa etnik guruh vakillarining markaziy hokimiyatga tobeligini saqlab turishni ko'zlagan. Xonlikda turli viloyatlarni ma'muriy boshqarish markazlaridan turib amalga oshirilgan. XIX asrning 40 yillaridan keyin xonlik markaziy hokimiyatida vujudga kelgan guruhbozliklar, hokimiyat uchun to'xtovsiz davom etgan kurashlar natijasida ma'muriy bo'linishda ma'lum o'zgarishlar yuz bergan. Jumladan, bu davrda viloyatlar tarkibida alohida kichik hokimliklar tashkil etildi. Xonlik ma'muriy boshqaruv tizimida katta birlik bo'lgan viloyatning mayda birliklarga bo'linishi bu davrda mamlakatda yuzaga kelgan siyosiy vaziyatning murakkablashgani, markaziy davlat salohiyatining susayganligi, turli kuchlar va amaldorning hokimiyat bilan ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan.

XIX asrda xonlikning chegara hududlarini bir necha qal'a va istehkomlar muhofaza qilgan. Xonlikning chekka hududlarini boshqarishda harbiy qal'alar ham markaz vazifasini bajargan.

1830 yillarga qadar xonlik hududida qurilgan bu harbiy istehkomlarda ma'muriy markaz sifatida foydalanilganligi tarixiy manbalarda qayd etilgan. Ular jumlasiga Oqmasjid, Avliyoota, Pishpak, To'qmoq, Qurtka, Niyozbek, Mahram kabilarni kiritish mumkin. Chu vodiysi bo'ylab bunyod etilgan istehkomlar esa nafaqat chegara muhofazasi uchun, balki ularning atrofidagi shaharlar va qishloqlarni itoatda tutib turish uchun ham xizmat qilgan. Ushbu shahar va qal'alarda harbiy qism va ularga boshliq bo'lgan botirboshilar bo'lgan. Mudofaa maqsadlari uchun qurol va aslahalar saqlangan.

XIX asrning 60 – yillariga kelib, Rossiya imperiyasining xonlik hududiga bostirib kirishi natijasida mamlakat hududining katta qismini bosib oldi. Ayniqsa, 1865 yilda mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutgan Toshkent viloyatining to'liq bosib olinishi nafaqat xonlikning hududi va ma'muriy birliklariga, siyosiy mustaqilligiga ta'sir o'tkazdi. Hokimiyat tepasiga uchinchi bor kelgan Xudoyorxon (1865-1875) o'z erkinligini mustamlakachilar qo'liga osongina topshirib qo'yganligini o'zi anglamadi. Bu davrda davlatning ko'pgina ma'muriy birliklari qo'ldan ketdi. Xonlikning hududi faqatgina Farg'ona vodiysi bilan chegaralanib qoldi. Bu esa 1870 yilga kelib Xudoyorxon kichrayib qolgan xonlikning ma'muriy – hududiy bo'linishini qaytadan ko'rib chiqishiga sabab bo'ldi.

Tadqiqotchi V.Nalivkin “xonlikning ma'muriy bo'linishini viloyatlarga, viloyatlar bekliliklarga, bekliliklar esa o'z navbatida, aminlik va oqsoqolliklarga bo'lingan”, - deb ko'rsatgan. Qolaversa, tadqiqotchi A.Kun tomonidan keltirilgan Marg'ilon bekligidan ajratib olingan Aravon Sulton Murodbekning o'g'li tomonidan boshqarilganligi haqidagi ma'lumot V.Nalivkin keltirgan ma'lumotga to'g'ri keladi.

Xonlikning turli ma'muriy birliklari oliy hukmdorning o'ziga yaqin kishilari tomonidan boshqarilgan. Bu an'ana ham O'rta Osiyo xonlarining barchasiga xos edi. Biroq, Qo'qon xonligida, Buxoro va Xiva xonliklaridan farqli ravishda, muhim siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etgan markazlarga hukmdor sulolaning vakillari emas, balki, katta siyosiy, harbiy tajribaga ega bo'lgan amaldorlar va sarkardalar tayinlangan. Juda katta sarhadlarni o'z ichiga birlashtirgan Qo'qon xonligining ma'muriy-hududiy bo'linishi va ma'muriy boshqaruvida, boshqa xonliklaridan farqli o'laroq, XIX asrning birinchi choragida qurilgan harbiy istehkom vazifasini o'tagan qal'alar muhim ahamiyat kasb etgan. Bu harbiy qal'alar xonlikning chegara hududlarini, xonlik hududidagi dasht aholisini itoatda tutish va markaziy hokimiyat siyosatini joylarda amalga oshirishda muhim rol o'ynagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қаюмов А. Қўқон хонлиги адабий муҳити,-Т.,Фан,1961.
2. Юсупов Ш. Очерки истории Кулябского бекства в конце XIX и начало XX века,- Душанбе,1964.
3. Плоских В. Киргизи и Кокандского ханства.-М.:1977.
4. Қосимов Ў. Қўқон тарихи.-Т:Фан,1996.
5. Қосимов Ў. Қўқон хонлиги тарихи очерклари.-Наманган,1994.
6. Зияев Х. Туркистонда Россия тажовузи хукмронлигига қарши кураш.-Т: Шарқ,1998;
7. Sagdullayev.A., Aminov B., Mavlonov A., Norqulov N. O'zbekiston tarixi:davlat va jamiyat davlatchiligi ocherklari.-Т.:Akademiya,2000.
8. Политология/ Под редакцией д.е.н.проф.Полуниной Г.Б.-М.:1998
9. Вохидов Ш.,Холиқова Р. Ўрта Оиё хонликлари давлат бошқаруви тарихидан (XIX – XX аср бошларида).Т. 2006.
10. Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи.-Тошкент:Янги аср авлоди,2012.